

QO‘QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 3-son)



FILOLOGIYA
PHILOLOGY

O‘ZBEK XALQ SEHRLI ERTAKLARINING BADIY O‘ZIGA XOSLIGI

Zebiniso Rasulova
filologiya fanlari nomzodi,
O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti
katta ilmiy xodimi

Annotatsiya: ushbu maqolada o‘zbek xalq sehrli ertaklarining obrazlar tizimi va syujetda muhim o‘rin egallagan sehrli buyumlarning o‘ziga xos badiiy xususiyatlari haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: ertak, mif, obraz, syujet, sehrli buyum.

ХУДОЖЕСТВЕННАЯ УНИКАЛЬНОСТЬ УЗБЕКСКИХ НАРОДНЫХ ВОЛШЕБНЫХ СКАЗОК

Аннотация: в данной статье рассматривается система образов узбекских народных волшебных сказок и своеобразные художественные особенности волшебных предметов, занимающих важное место в сюжете.

Ключевые слова: сказка, миф, образ, сюжет, волшебный предмет.

ARTISTIC FEATURES OF UZBEK FOLK MAGICAL TALES

Abstract: This article discusses the system of images in Uzbek folk magic tales and the unique artistic features of magical objects that play an important role in the plot.

Keywords: fairy tale, myth, image, plot, magical object.

Kirish. O‘zbek sehrli ertaklari o‘ziga xos syujetlar silsilasi va obrazlar tizimiga ko‘ra boshqa xil ertaklardan farqlanib turadi. Ularning tarixiy ildizlari juda chuqur bo‘lib, qadim zamonlarda yashagan ota-bobolarimizning e‘tiqodiy qarashlari, mifologik ishonchlari, turmush tarzi, urf-odatlar, marosimlari tizimiga borib taqaladi.

Folklorshunoslikda sehrli ertak obrazlari, motivlari va syujet tiplarini aniqlash natijasida ertak nazariyasi va epik ijod tabiatini belgilovchi ko‘plab konsepsiyalar yuzaga kelib, bu borada muayyan natijalarga erishilgan. Olib borilayotgan ilmiy izlanishlar asosida o‘zbek xalq sehrli ertaklarining obrazlar tizimi, obrazlarning syujetda tutgan o‘rni va vazifasiga ko‘ra tiplari, qahramonlar funksiyalari va ularning o‘ziga xos xususiyatlari, obrazlarning zamon va makon bilan bog‘liqligi, qahramonlarning an‘anaviy atributlari badiiyati, ertaklardagi ismlar, joy nomlari kabi masalalarni har tomonlama batafsil tekshirishda keng imkoniyatlar yuzaga keldi.

Adabiyotlar tahlili

O‘zbek folklorshunos olimlari xalq og‘zaki ijodi asarlaridagi obrazlarni o‘rganishda turli ilmiy-nazariy qarashlarni ilgari suradilar. Akademik T.Mirzayev fikricha, har bir ijodkor improvizatsiya davomida tayyor obraz va ifodalarga yangicha ma‘no yuklaydi [1.68]. M.Saidov xalq og‘zaki ijodi asarlarida xalqning real hayoti badiiy obrazlarda ifodalanadi, degan fikrni o‘rtaga tashlaydi [2.3]. M.Jo‘rayev folklordagi mifologik obrazlarni muayyan voqea-hodisaning jonlantirilgan timsoliy ifodasi deya ta‘kidlab, ular voqelikning mohiyatini metaforik, ramziy va istioraviy holatda o‘ziga ko‘chiradi va uning shakliy tajassumi deb hisoblaydi [3.9]. Sh.Turdimov xalq qo‘shiqlaridagi ramziy obrazlarning leksik ma‘nosi ramziy ma‘noga to‘g‘ridan to‘g‘ri ishora qilmay, obrazni yuzaga keltirgan mifologik tasavvurlar va xalqning inonch-e‘tiqodlariga ramziy ma‘no assosatsiyatsini uyg‘otadi, degan fikrni bildiradi [3.11]. J.Eshonqulov folklor obrazlarining tarixiyligi undagi ifoda va tasavvurda ko‘rinishi, bu esa xalqning birlamchi dunyoqarashiga, shomonlik va ungacha bo‘lgan davrlar tasavvurlariga mos bo‘lib, bugungi kungacha shu tasavvurni tashishini ta‘kidlaydi [4.7].

Tadqiqot metodologiyasi

Sehrli ertaklarda tilsim bilan aloqador “g‘aroyib buyum”lar ishtirok etadi va ular bosh qahramon qiyofasini ideallashtirishga xizmat qiladi. Chunki sehrli-fantastik ertaklarda asosiy qahramonning o‘zi emas, aksincha, uning qo‘lidagi narsalar, yonidagi jonivorlar sirli va g‘aroyib kuchga ega bo‘lib, qahramonga homiylik ko‘rsatadi. Ularning ishtiroki esa ertaklarda bayon qilinayotgan voqealarni sirliyligini, badiiy ta‘sirchanligini, qiziqarliligini ortiradi. Ular ertak qahramonining uzog‘ini yaqin qiladi; uni o‘zga olamga olib kiradi; malika visoliga erishtiradi; oldida turgan turli mushkul muammolarini oson hal qilib, qiyin vaziyatlardan olib chiqadi; dahshatli raqibini mag‘lub etishida ko‘maklashadi; qahramonni bir ko‘rinishdan boshqa ko‘rinishga evriltiradi, qisqa vaqt ichida uzoq masofadan yetkazib keladi. Bu sehrli predmetlar ertak qahramonining xarakterini ochishga xizmat qiladi. Chunki ertaklardagi sehrli buyumlar yaxshi, ochiq ko‘ngil, pok niyatli, mehnatkash, botir va saxiy insonlar qo‘liga tushganda ezgulik, bunyodkorlik yo‘lida ishlatilsa, xudbin, toshbag‘ir, yovuz, ichiqora, ochko‘z, baxil kimsalar qo‘lida yovuzlik uchun ishlatishi tasvirlanadi. Shu sababli ezgu niyatli ertak qahramoni qo‘lidagi tilsim buyumni ko‘z qorachig‘iday asrashga, u bilan bog‘liq tilsimni hech kimga oshkor qilmaslikka harakat qiladi va ular vositasida ko‘z ko‘rib, quloq eshitmagan ishlarni amalga oshiradi, turli mo‘jizalar yaratadi. Oddiy inson ko‘rinishidagi qahramon og‘zidan o‘t purkaydigan bahaybat ajdaho, dahshatli ko‘rinishdagi odamxo‘r dev, o‘ta makkora yalmog‘iz hamda jodugar, maston, ayyor jin kabi sirli olamning yovuz kuchlariga faqat magik ashyolar va tilsim buyumlar bilan bas kela oladi va ularni shu vositalar orqali mag‘lub etib, g‘alabaga erishadi.

Tahlillar va natijalar

Sehrli-fantastik ertaklar syujeti tarkibida uchraydigan xayoliy (qaynar xumcha, ur to‘qmoq, ochil dasturxon va h.k. singari) “g‘aroyib predmet”lar fetishistik tasavvur-tushunchalar zaminida emas, balki magiyaga (sehr-joduga) ishonch asosida kelib chiqqan.

Chunki ular real hayotda mavjud moddiy jism sifatida uchramaydi. Sehrli uzuk, sirli pichoq yoki qilich, tilsim oyna va boshqa “g‘aroyib predmet”larning kelib chiqishi esa fetishizm bilan bog‘liqligiga shubha yo‘q. Zero, real hayotda g‘aroyib uzuk, sehrli pichoq yoki qilich, tilsim oynalar uchramasa-da, biroq ular mavjud moddiy jismning xususiyatini fetishistik qarashlar asosida bo‘rttirish, mubolag‘alashtirish, tilsimlashtirish asosida yaratilgan.

Fetishistik qarashlarni o‘zida aks ettirgan ertaklarning o‘ziga xos xususiyatlari shundan iboratki, ularning yetakchi epik vazifasi ertak qahramoniga yordam berishdan iboratdir. Bu tip “g‘aroyib predmet”larning ayrimlari o‘zi bevosita harakat qilmaydi. Fetish asosida shakllangan epik obrazlar aslida u yoki bu epik ko‘makchini yordamga chaqirish vositasi hisoblanadi: ular ertak qahramonining faoliyati davomida zarurat tug‘ilgan paytdagina yordamga keladi va buyurilganda xizmatni ado etadi.

Mifshunos olim V.Vundtning fikricha, ibtidoiy kishilar har bir odamning vujudida ruh bilan uning o‘limdan keyin tanani tark etib ketadigan joni ham mavjud bo‘ladi deb tasavvur qilganlar. Ana shu jonning “egizagi” sifatida tasavvur qilingan “ruh” kishi tanasidan boshqa joyda, masalan, birorta buyum, o‘simlik yoki jonivorda saqlanishi ham mumkin deb qaralgan. O‘zbek xalq ertaklarida devlarning joni kaptar, qurt, baliq kabi jonivorlarda yashirinishi to‘g‘risidagi talqinlarning qadimiy asoslari ana shu qarashlarga borib taqaladi.

O‘zbek xalq ertaklaridagi animizm bilan bog‘liq motiv va syujet elementlari ham ko‘p uchraydi. Masalan, “Mening jonim qilichda, qilichsiz asti yurolmayman” – deydi “Qilichbotir” ertagi qahramoni. Maston kampir uning qilichni tosh bilan bukib, soyga tashlaydi. Xudi shu paytda Qilichbotir yo‘lda yiqilib qoladi. Ibtidoiy odamlar uchun tabu o‘ziga xos sirli shart bo‘lgan. Uni unutish yoki unga amal qilmaslik, bu shartni nazar-pisand etmaslik, sabrsizlik qilib buzish oqibatida kishi o‘ziga zarar keltiruvchi sehrga yo‘liqishi mumkin, lekin zararli sehr ta’siridan kishini xolos etuvchi, himoya qiluvchi, unga qarshi tura oladigan magik vositalar ham bor, deb o‘ylaganlar. Shu tasavvur – tushunchalarning izlari sehrli ertaklarda qahramonning yovuz niyatli mifologik obrazlarga qarshi turli himoyalovchi magik predmetlar vositasida kurashishi misolida badiiy talqin qilinadi. Shunga ko‘ra, sehrli erkaklarda ikki xil sehr-jodu talqin etiladi. Bular zarar yetkazuvchi va himoya qiluvchi sehr-jodudir.

Xulosa

O‘zbek xalq sehrli ertaklari g‘aroyibliklarga juda boydir. Masalan ularda Xizr, sehrgar chol yoki kampir, zar kokilli bola, kulsa og‘zidan gul, yig‘lasa ko‘zidan dur sohadigan qiz, va boshqa bir qator obrazlar sehr-jodu qudrati, g‘aroyib xislati, sirli ko‘rinishi, g‘ayrioddiy tug‘ilishi, unib-o‘sishi, sirli namoyon bo‘lishi bilan e’tiborni tortadi. Zoomorf shakldagi g‘aroyib hayvon va qushlar timsoli esa masalan, uchar ot, bulbuligo‘yo, Semurg‘, anqo, oltin baliq, oltin tuyoqli kiyik, laylak va boshqa qushlar obrazi esa g‘aroyib xususiyatli qilib tasvirlanadi. “G‘aroyib buyum”lar dev, pari, yalmog‘iz kampir, ajdar singari mifologik obrazlar ishtiroki ham ertak badiiy strukturasi qahramoniga yordam beruvchi homiy-personaj, unga dushmanlik qiluvchi raqib-personaj, “g‘aroyib buyum”larni hadya etuvchi epik homiy kabi vazifalarda keladi.

Bundan tashqari, sehrli ertaklarda qahramonining harakat yo‘nalishi yo‘naltirilgan “o‘zga yurt” sehrli-fantastik makon sifatida talqin qilinadi. Va biz ertak qahramonlari bilan birga Eram bog‘i, yer osti, suv osti mulki, Qo‘hi Qof singari sehrli makonlarga sayohat qilamiz. Sehrli so‘zni aytish orqali toshning yorilishiga, g‘or og‘zining ochilishiga guvoh bo‘lamiz. Ertaklarning sehrli og‘ushida xayol suramiz, orzular qilamiz.

Ibtidoiy insonlar ham dastlab barcha yumushlarni bevosita o‘z kuchi, qo‘l mehnati bilan bajargan bo‘lsa, keyinchalik u yoki bu mehnat turini tez va oson bajarish, o‘zi uchun qulaylik tug‘dirish maqsadida turli mehnat qurollarini o‘ylab topgan. Mehnat qurollari insonga yordamga kelgach, uning mehnati bir oz osonlashdi. Masalan, uchar gilamlar orzusining amaliy samarasi sifatida maydonga kelgan avtomobillar, samolyotlar, umuman, turli transport vositalari xalqning uzog‘ini yaqin qildi.

Inson orzu qilar ekan albatta unga yetishishni maqsad qiladi. Maqsadga esa mehnat, harakat, intilish orqali erishiladi. Hayotda ham ertaklardagi kabi yaxshi niyatli insonlarga o‘z maqsadiga yetib, haqiqiy baxtga, saodatga erishishadi. Bu haqiqat asrlar osha xalqimizning yuzlab mashhur ertak ijrochilari tomonidan o‘ziga xos joziba bilan ijro etib kelingan, fidokor insonlar, folklorshunos olimlar mehnati bilan yozib olingan ertaklarda o‘z aksini topgan.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Jo‘rayev M. Folklorshunoslik asoslari. – Toshkent: Respublika metodika va axborot markazi, 2008. – B. 9.
2. Mirzayev T. Xalq baxshilarining epik repertuari. – Toshkent: Fan, 1979. – B. 68.
3. Saidov M. “Malikai ayyor” dostoni. – Toshkent: Fan, 1964. – B. 3.
4. Turdimov Sh. Xalq qo‘shiqlarida ramz. – Toshkent: Fan, 2020. – B. 7.
5. Eshonqulov J. Folklor: obraz va talqin. – Qarshi: Nasaf, 1999. – B. 7.